

MAKTAB YOSHIDAGI BOLALARDA AGRESSIV XULQ- ATVORNING NAMOYON BO‘LISHI VA UNI KORREKSIYALASH USULLARI

Irisboyeva Manzura

O‘zbekiston Davlat Jahon Tillari Universiteti talabasi

Annotatsiya: *Ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarda agressiv xatti-harakatning namoyon bo‘lishi, uning asosiy sabablari va agressiyani bartaraf etish bo‘yicha bir qancha psixologik maslahatlar keltirib o‘tiladi.*

Kalit so‘zlar: *xulq-atvor, agressiya, “Ikudzi” falsafasi, sabab, korreksiya, maktab yoshi.*

Hozirgi kunda maktab yoshidagi bolalarning xatti-harakatida agressivlikning namoyon bo‘lishi oshib bormoqda. Bu borada bir nechta xorij va mahalliy olimlar tomonidan izlanishlar va ilmiy tadqiqodlar o‘tkazilgan. Tadqiqodlar natijasi amalda qo‘llanganligiga qaramay maktab psixologlari va pedagog-o‘qituvchilar o‘quvchilarda agressiv xulq-atvorning ko‘payib borayotganini va bu muammoning dolzarbligini ta’kidlab kelishmoqda. Bu jarayon asosan o‘smir yoshdagi (12-16) maktab o‘quvchilarida ko‘plab kuzatilmoqda.

Ilmiy izlanishlar shuni ko‘rsatadiki maktabgacha va maktab yoshidagi bolalarda agressiyaning oshib borishiga oila muhitidagi va jamiyatdagi ko‘plab holatlar sabab bo‘lishi mumkin. Odatda bunday xulq-atvor bolaning yoshligidan shakllangan bo‘ladi. Bola shaxsining rivojlanishi ikki jihatni o‘z ichiga oladi ulardan biri bolani atrof muhitni asta-sekin anglab borishi va unda o‘z o‘rnini his qilishini bildiradi. Bular sababli bola xulqida o‘zgarishlar ro‘y beradi va ular ta’sirida ostida bola u yoki bu harakatlarni sodir qiladi. Boshqa tomondan esa his-tuyg‘u va irodani rivojlanishini taqozo etadi. Ular yuqorida aytilgan o‘zgarishlar

ta'sirini, xulq-atvor mustahkamligini, uning tashqi sharoitlarga bog'lanib qolmasligini ta'minlaydi. ¹

Maktab yoshidagi bolalarda agressivlik kelib chiqishining asosiy omillari quyidagilar:

- ✓ oila muhiti - oiladagi nizolar, janjallar va natijada bolaga mehr va e'tibor yetishmasligi;
- ✓ taqqoslash - bolani o'zga bolalarga taqqoslash;
- ✓ ota-onaning qo'pol munosabati;
- ✓ televideniya - bir qancha jangari filmlar va namoyishlar.

Aytib o'tilgan fikrlar shuni ko'rsatadiki bolalar va o'smirlarda tajovuzkor xulq-atvorni paydo bo'lishi va rivojlanishida asosan oila muhim rol o'ynaydi. Farzandini boshqa oila farzandlariga taqqoslash, uning yutuqlariga befarqlik va arzimagan narsalar uchun bolani tahqirlash va kamsitish bolada agressiyani keltirib chiqaradi.

Bundan tashqari, hozirgi kunda oynaijahon tomonidan namoyish etilayotgan bir qancha jangari turdagi filmlar, ko'rsatuvlar va multfilmlar, shu bilan bir qatorda turli online o'yinlar (" Pubg Mobile" , " Counter Strike", " Mortal Kombat") ham bolalarning xulq-atvoriga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Psixologiya va boshqa bir qancha sohalarda bolalar agressivligini o'rgangan va tadqiq qilgan olimlar talaygina. Shular qatorida *Byunter* o'z tadqiqod natijalariga ko'ra shunday fikrni ilgari suradi: Agressiyaning namoyon bo'lishida ham gender tiplari mavjud bo'lib, bunda o'g'il bolalar jismoniy tajovuzkorlik bilan ustun turadi. Qizlar esa agressivlikni bir nechta bilvosita yo'llar ya'ni: og'zaki va negativizm (salbiylik) orqali namoyish etadi.

Maktab yoshidagi bolalarda agressiyani korreksiyalash muhim bo'lib, buning bir nechta usullari mavjud:

¹Mo'ydinova N.N. Bola shaxsining rivojlanishi uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar.//“O‘zbekiston ilmiy tadqiqodlar: Davriy anjumanlar:” mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy online konferensiya materiallari to‘plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: “Tadqiqod”,2022. – 26 betda

- ✓ o‘z qiziqishlari va xohishlariga to‘g‘ri keladigan sport turi bilan shug‘ullanish;
- ✓ oila davrasida ko‘proq suhbatlashish;
- ✓ bolaning yutuqlari uchun rag‘batlantirish;
- ✓ vaqti-vaqti bilan psixolog va pedagog-o‘qituvchilar bilan suhbatlashish.

Bola bilan maktab psixologlari muntazam ravishda suhbatlar o‘tkazib turishi muhimdir. Chunki psixolog va o‘qituvchilarning birgalikdagi faoliyati bola shaxsiy pozitsiyasini yaratish uchun shart-sharoitlarni shakllantiradi. Unda o‘z “men”ini anglashi, o‘ziga ishonch va o‘z fikrini ifodalash qobiliyatini rivojlantiradi.²

O‘z his-tuyg‘ularini aytishga qiynaladigan bolalar bilan oila muhitida ko‘proq shug‘ullanish kerak. Masalan, onasi yoki otasi o‘z his-tuyg‘ularini sababini yengilroq shaklda bolaga izohlab berishi va bundan rag‘batlangan bola ham o‘z g‘azabini yoki nafrat sababini izohlashni o‘rganadi.

Chunki bolalar uchun na‘muna sifatida kattalarning o‘zi, avvalo ularning harakatlari, o‘zaro munosabatlari xizmat qiladi. Bola atrofidagi yaqin insonlarining xulqi unga bevosita jiddiy ta‘sir ko‘rsatadi. U ularga taqlid qilishga, odatlarini o‘xshatishga, odamlarga, hodisalarga, narsalarga bo‘lgan fikrlarini o‘zlashtirishga moyil bo‘ladi.³

Bundan tashqari maktab yoshidagi bolalar agressivligini kamaytirish va korrektsiyalash maqsadida turli davlatlarda turlicha metodlar qo‘llaniladi. Shu jumladan, Yaponiyada bolalar ulg‘ayganda bunday xulq-atvor kuzatilmasligi

² Urazbayeva P.J. Maktabda psixologning ro‘li.//“O‘zbekiston ilmiy tadqiqodlar: Davriy anjumanlar:” mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy online konferensiya materiallari to‘plami, 31-may 2022-yil. - Toshkent: “Tadqiqod”,2022. – 15 betda

³ Mo‘yidinova N.N. Bola shaxsining rivojlanishi uchun zarur bo‘lgan shart-sharoitlar.//“O‘zbekiston ilmiy tadqiqodlar: Davriy anjumanlar:” mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy online konferensiya materiallari to‘plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent: “Tadqiqod”,2022. – 26 betda

uchun ular bolalariga kichik yosh davridan boshlab katta e'tibor qaratishadi. Ko'pchilik yaponlar farzand tarbiyasida "Ikudzi" falsafasiga tayanishadi. Bunga ko'ra, farzand dunyoga kelgandan voya yetguncha bo'lgan davr 3 bosqichga bo'linadi. Bular:

1-bosqich: bu davr bolaning tug'ilganidan boshlab 5 yoshga kirguncha davom etadi. Bu vaqt ichida ota-onalar bolani cheksiz mehr va muhabbat bilan o'rab oladi. Bolaning barcha xohish va istaklari bajariladi.

2-bosqichda: Bu bosqich bolaning 5 yoshidan 15 yoshigacha davom etib, bunda bola jamiyat qoidalarini faol o'rganadi va unda o'z o'rnini topishga harakat qiladi. 3-bosqich: Bu davr bolaning 15 yoshidan boshlanadi. Shu vaqtdan boshlab u jamiyatning shakllangan a'zosi hisoblanadi. Bu usullar bolaning fikrini jamlashga va ko'proq pozitiv (ijobiy) fikrlashiga yordam beradi.⁴

Xulosa qilib aytganda, bolaga yoshlik davridan oilada, maktabgacha ta'limda va maktabda ham yetarlicha mehr va e'tibor berilsa agressiv xatti-harakatlarning oldi olinishi va kamayishi mumkin. Bu esa albatta jamiyatda o'z o'rniga ega kadrlar yetishib chiqishiga va o'smirlar va yoshlar orasida jinoyatchilikning keskin kamayishini ta'minlaydi. Buning uchun esa ota-onalar farzandlariga ularning chaqaloqligidan boshlab katta e'tibor berishlari muhimdir. Ayniqsa bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida yosh onalar o'z farzandlarini mehr-e'tibor bilan parvarishlash o'rniga ularni qarovchi va enagalar qaramog'ida qoldirishga majbur bo'lishmoqda. Buning natijasida esa bola mehr-e'tibor yetishmovchiligi bilan ulg'ayadi va uning xarakterida ham shu taqlid rivojlanadi. Bola tug'ilganidan boshlab 3 yoshgacha bo'lgan davr juda muhim bosqich hisoblanadi. Shu sababli bu davrda ota-onalar farzandlariga e'tiborli va mehr-muhabbatli bo'lishlari bolaning rivojlanishida va yuqorida aytib o'tilgan agressiv xulq-atvordan holi bo'lgan holda ulg'ayishida katta ahamiyatga ega.

⁴ <https://daryo.uz/2017/05/14/fakt-yapon-bolalarini-tarbiyalashdagi-beshta-sir>

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Karimova B.M., Akramova F.A. “Psixologiya” ma’ruzalar matni.// Toshkent-2000 yil
2. Asqarova O‘M. Pedagogoka: Oliy o‘quv yurtlari talabalari uchun darslik.// O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi.-T.: “Talqin”, 2008-yil.-288b
3. A.K. Shamshetov, R.N. Melibayeva, X. E. Usmonova, I.O. Xaydarov. “Umumiy psixologiya”. O‘quv qo‘llanma.//T.:”Barkamol fayz media”, 2018.-272b
4. E.G‘oziyev “Umumiy psixologiya” Psixologiya mutaxassisligi uchun darslik.//“Asian Book House”. Toshkent-2020
5. “O‘zbekiston ilmiy tadqiqodlar: Davriy anjumanlar” mavzusidagi respublika 40-ko‘p tarmoqli ilmiy masofaviy online konferensiya materiallari to‘plami, 31 may 2022 yil. - Toshkent:”Tadqiqod”,2022. - 326b
6. <https://daryo.uz/2017/05/14/fakt-yapon-bolalarini-tarbiyalashdagi-beshtasir>